

## PREZIDENT MUROJAATNOMASIDA INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINI ISHONCHLI HIMOYA QILISH MASALASI

**Yusupov Rahimboy Bekbergan o'g'li**

Xorazm viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi.

**Sobirova Dildora Otabek qizi**

**To'liboyev Akbar Zafar o'g'li**

Xorazm viloyati yuridik texnikumi o'quvchilari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7676473>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish masalasi haqidagi fikrlari to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: murojaatnoma, Oliy Majlis, yo'nalish, inson huquq va erkinliklari, sud, Xalqaro tijorat sudi.

Odam bolasi borki maqsadsiz, orzularsiz yashay olmaydi. Shuning uchun ham har birimiz yangi yilga qadam qo'yar ekanmiz, o'z oldimizga yangi marralar, yangi maqsadlar qo'yamiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev esa bizdan farqli o'laroq o'zbek xalqining baxtli yashashi uchun kengroq imkoniyatlar yaratishni hamda mamlakatimizni yanada rivojlantirishni o'z hayotining asosiy mazmuniga aylantirgan desak, also mubolag'a bo'lmaydi. Darhaqiqat, o'z manfaatidan ko'ra o'z galar manfaatini ustun qo'yish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Bu ulkan jasorat, albatta. Ushbu so'zlarning qanchalar to'g'ri ekanligini yurtboshimizning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan *Murojaatnomasidagi* nutqini tinglagan har bir O'zbekiston fuqarosi juda yaxshi anglaydi.

Aytib o'tish kerakki, Prezidentning Oliy Majlis timsolida butun xalqimizga qiladigan Murojaatnomasi muhim siyosiy voqelikka aylandi. Har yili Murojaatnomada davlat va jamiyat hayotining eng dolzarb masalalari ko'tariladi, muammolar ochiq tahlil va tanqid qilinadi. Bu safar ham xuddi shunday bo'ldi. Hech bir soha yurtboshimizning e'tiboridan chetda qolmadi. O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta'minlash ustuvor vazifa etib belgilanganligi bois Prezidentimiz 2023-yilga *"Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"* deb nom berishni taklif qildi. Ushbu tashabbus esa bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi.

Yurtboshimiz o'z murojaatnomasida 6 ta asosiy yo'nalish doirasida inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish masalasig aham alohida e'tibor qaratdi. "Inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilanishi lozim", - dedi Prezident Shavkat



Mirziyoev. So'nggi yillarda sud-huquq tizimida adolat o'rnatish bo'yicha ko'p ish qilingani, shu bilan birga, hozir ham tergov sifati pastligi, sudlarda odamlarning ovoragarchiligi, sud qarorlari ijro etilmay qolayotgani bilan bog'liq holatlar uchrayotgani ta'kidlandi. "Nima uchun, haligacha davlat hisobidan bepul ta'minlanadigan advokatlarni "elektron tanlash" tizimi ishga tushmadi? Kim bunga qarshi?", - deya savol qo'ydi Prezident va tez kunlarda ushbu tizimning to'liq ishga tushirilishini ta'minlashni topshirdi.

Qisqa muddatda huquq-tartibot idoralarini yangicha ishlashga o'rgatadigan, odil sudlov sifatini oshiradigan tizim yaratiladi.

Eng avvalo, odamlarning joylarda sudma-sud sarson bo'lib yurishlariga barham beriladi.

Yangi tizim doirasida:

tintuv o'tkazish, telefon so'zlashuvini eshitish va mulkni xatlashga sanksiya prokurordan sudga o'tkaziladi;

- tergovchi jinoyatga aloqador deb, har qanday mulkni xatlab qo'ya olmaydi. Bundan buyon, mulk huquqini cheklashga oid har qanday harakat faqat sud orqali bo'ladi;

- sudda ishlarni ko'rishda qatnashadigan alohida prokurorlar korpusi shakllantiriladi. Ular maxsus o'qitiladi, ishni sudda ko'rishda xolis, mustaqil bo'lishi qonun bilan belgilanadi;

- odil sudlovni ta'minlashda himoyachiga berilgan huquqlar ham qayta ko'rib chiqilib, yetmaydigan vakolatlar beriladi;


- sudlarga jinoyat ishi faqat ayblov xulosasi bilan emas, balki himoyachi fikri bilan birga qabul qilinadi.

- ayblanuvchining himoyachidan voz kechishi bo'yicha har bir holat prokuror, sud tomonidan sinchiklab o'rganiladigan tizim joriy qilinadi.

Ma'muriy sudlarga ishlarni eksterritorial tartibda ko'rish amaliyoti joriy qilinadi Prezident oxirgi paytlarda ayrim ushlab turish joylarida inson huquqlari buzilishi bo'yicha og'riqli masalalar ko'tarilayotganini qayd etdi. "Bizning yurtimizda bunday holatlar umuman bo'lishi mumkin emas. Kim bunga amal qilmasa, qonun ustuvor, jazo muqarrar bo'ladi", - dedi davlat rahbari.

Shu bois, bunday joylarga olib kelingan barcha shaxslarni hisobga olishning onlayn tizimi joriy etiladi va yuzni tanish uskunasi o'rnatiladi.

Ma'muriy sudlarga hokim qaroridan norozi bo'lib murojaat qilinganda, ishlarni eksterritorial tartibda, ya'ni boshqa hududda ham ko'rish amaliyoti joriy qilinadi.



O'zbekistonda mulk va investitsiyaning himoyasini kuchaytirish maqsadida Xalqaro tijorat sudini tashkil qilish bo'yicha ham amaliy ishlar boshlangani ta'kidlandi.

Ishonamizki, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish borasidagi mazkur islohotlar kelgusida, albatta, o'zining ijobiy natijalarini beradi. Yurtboshimizning quyidagi so'zlari maqolamizga chiroyli yakun yasaydi: "Hayot oldimizga yana qancha sinov va muammolarni qo'yishi mumkin va biz har qanday holatga tayyor turishimiz zarur. Lekin qanchalik qiyin va murakkab bo'masin, demokratik islohotlar yo'lidan hech qachon ortga qaytmaymiz. Oldinga, faqat oldinga qarab boramiz. Va biz bunga har tomonlama qodirmiz. Chunki bugungi xalqimiz – kechagi xalq emas. Bugungi O'zbekiston ham – kechagi O'zbekiston emas".

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasi matni.
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz.

